# Ta’lim sifatini oshirish yo’lidagi hamkorlik

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi videoselektor yig’ilishi, shuningdek Prezidentimizning “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Toshkent viloyati O’rtachirchiq tumanidagi 51-sonli maktab bilan ta’lim sifatini oshirish bo’yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, hozirda maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayoni va mavjud shart-sharoitni o’rganish, fan o’qituvchilarini bilimi va salohiyatini tashxis qilish va mavjud muammolarini aniqlash, ularni malakasini oshirish va metodik yordam ko’rsatish, shuningdek, ta’lim sifatini oshirish bo’yicha “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakulteti 51-sonli maktab bilan birgalikda “Yo’l xaritasi”, harakatlar rejasi ishlab chiqildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**